


## II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlarga asosan 2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tomonidan hajmi 16 669,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan sanoat mahsuloti fizik hajm indeksi 106,8 foizni tashkil etdi.

### 2024-yil yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, hajmi va fizik hajm indeksi



■ ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm. ■ o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi, foizda


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatda ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,5 foizga o'sishi bilan birga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash bo'yicha 93,5 foizni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 78,6 foizni va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish 108,8 foizni tashkil etganligini kuzatish mumkin.

**2024-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini  
ishlab chiqarish**

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi</b>	<b>16 669,4</b>	<b>106,8</b>
<b>Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>152,4</b>	<b>93,5</b>
<i>ulardan:</i>		
Tog'- kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat	71,9	113,4
Tog'- kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar	80,5	78,8
<b>Ishlab chiqaradigan sanoat</b>	<b>15 703,4</b>	<b>108,5</b>
<i>undan:</i>		
Oziq- ovqat ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	3147,2	103,2
To'qimachilik, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlari ishlab chiqarish	4 072,6	109,5
Yog'och va po'kak buyumlar , poxol va to'qish uchun materiallar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish	200,3	149,3
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	11,8	3,5 m.
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	6 563,0	105,3
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	450,4	116,0
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	1,1	10,2
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	796,9	114,1

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘shish sur‘ati, foizda</i>
Metallurgiya sanoati	58,5	120,0
Mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta‘mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, treylar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish	387,2	144,2
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	14,4	3,2 m.
<b>Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>659,4</b>	<b>78,6</b>
<b>Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>154,2</b>	<b>108,8</b>

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**  
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)  
(yanvar-iyun)



<span style="color: green;">■</span>	Ishlab chiqaradigan sanoat
<span style="color: blue;">■</span>	Tog'-kon sanoati va ochiq konlardan ishlashi
<span style="color: orange;">■</span>	Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
<span style="color: red;">■</span>	Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash**

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida o‘rganilganda,

Tog‘- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 152,4 mlrd.so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 foizni tashkil etdi.

Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo‘yicha o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog‘-kon sanoati bilan bog‘liq boshqa faoliyat 13,4 foizga ko‘paygan, tog‘-kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar 21,2 foizga kamaygan.

**Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)**

Buxoro viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

2024-yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15 703,4 mlrd.so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,2 foizni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan  
natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	<i>O‘lchov birligi</i>	<i>2024-yil yanvar-iyun</i>	<i>2023-yil yanvar-iyung nisbatan foiz</i>
Benzin	ming tn.	525,9	110,6
Dizel yoqilg‘isi	ming tn.	123,3	126,8
Mazut	ming tn.	43,2	142,1
Kerosin	ming tn.	98,3	103,5
Aroq	ming l. 100,0 foiz spirt	2 200,7	90,2
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari	ming l. 100,0 foiz spirt	9,5	158,8
Uzum vinosi	ming l.	221,4	2,4 m.

## *Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati*

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2024-yil yanvar-iyun</i>	<i>2023-yil yanvar-iyun nisbatan foiz</i>
Yumshoq bug'doy va spelta uni	ming tn.	15,4	162,4
Tozalangan o'simlik yog'i	tn.	7 043,1	66,7
Paxta tolasi	ming tn.	36,5	91,1
Paxta (linti)	tn.	3052,0	76,4
Paxta chigiti	ming tn.	60,7	90,9
Chigitdan olingan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar	ming tn.	22,6	88,9
Soapstoklar (neytrallash jarayoni mahsuloti)	tn.	206,7	42,0
Don ekinlarini qayta ishlashdan hosil bo'lgan kepak, chigit va boshqa chiqindilar	ming tn.	37,2	122,7
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari)	ming tn.	1,4	29,3
Chakana savdo uchun qadoqlangan paxtadan yigirilgan ip	tn.	15,0	91,7
Yo'l qoplamalari uchun asfaltli aralashmalar	ming tn	38,0	90,4


Shu bilan birga, oxirgi 5 yilning tegishli davrlari mobaynida un mahsulotlari eng ko'p ishlab chiqarish 2022-yilning yanvar- iyun oylariga to'g'ri kelmoqda (2020-yil-46,6 ming tonna, 2021-yil -44,3 ming tonna, 2022-yil – 46,7 ming tonna, 2023-yil – 9,5 ming tonna, 2024-yil –15,4 ming tonna)

O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish 2,1 marta ko'p, elektr uskunalari ishlab chiqarish 2,0 marta ko'p, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish 3,5 marta ko'p, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish 2,8 marta ko'pni tashkil etgan bo'lsa, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 123,7 foiz bo'lganligini kuzatish mumkin.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmog'ining ulushi 0,0 foizni, o'rta-yuqori texnologiyali 3,0 foizni, o'rta-quyi texnologiyali 49,6 foizni, quyi texnologiyali 47,4 foizni tashkil etdi.

Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyun oylarida 3 253,6 mlrd.so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

**2024-yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarishning  
texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi,  
(foizda)**



**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug‘ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog‘liq faoliyatni o‘z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 659,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,0 foizni) tashkil etdi.

2024-yil yanvar-iyun oylarida sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hamda bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash tizimi hajmining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 21,4 foizga kamayganligi kuzatildi.

2024- yilning yanvar-iyun oyida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 87,5 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 99,1 % ni tashkil etdi.

**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>2023- yil yanvar-iyun</i>	<i>2024-yil yanvar-iyun</i>	<i>Farqi +/-</i>
Bug‘ va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming g.kal.	431,0	427,0	-4,0
Elektr energiya, mln.kVt.s	1 007,6	881,3	-126,3

**Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.**

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig‘ish, qayta ishlash va yo‘qotish)ni o‘z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 154,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 foizni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 108,8 foizga ko'payganligi kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 57,2 % ga ko'payishi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 2,1 % ga ko'payishi kuzatildi.

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>2023- yil yanvar-iyun</i>	<i>2024-yil yanvar-iyun</i>	<i>Farqi +/-</i>
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	9 685,4	15 228,2	5 542,8
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	195,2	199,4	4,2

**Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi**

Buxoro viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Buxoro viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Qorovulbozor tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 41,3 foiz ulushi), Buxoro shahri (12,0 foiz), G'ijduvon tumani (9,0 foiz), Kogon tumani (6,1 foiz) hissasiga to'g'ri keladi.



**2024-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab  
chiqarish hajmidagi ulushi, foizda**




Hududlarning sanoat salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan izchil choralar natijasida Kogon (2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 110,8 foizga), Qorako'l (108,8 foizga), Olot (107,8 foizga) va Shofirkon (107,3 foizga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlandi.

**Sanoat mahsulotlari va aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari**  
(2024-yil yanvar-iyun )

	<i>Sanoat mahsulotlari, mlrd.so‘mda <sup>1)</sup></i>	<i>2023-yil nisbatan, foizda</i>	<b>Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ming.so‘mda</b>	<i>2023-yil nisbatan, foizda</i>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1 6669,4</b>	<b>106,8</b>	<b>8 128,0</b>	<b>105,0</b>
Buxoro sh.	2 009,0	107,1	6 787,6	105,0
Kogon sh.	548,7	98,3	8 455,4	96,9
<i>tumanlar</i>				
Buxoro	551,0	102,6	3 076,1	100,6
Vobkent	593,7	107,0	3 979,0	105,0
Jondor	699,0	107,2	3 756,5	105,3
Kogon	1 024,5	110,8	12 064,0	108,4
Olot	294,5	107,8	2 813,7	106,2
Peshko‘	466,9	107,2	3 549,2	105,4
Romitan	887,8	106,7	5 852,0	105,1
Shofirkon	496,9	107,3	2 660,7	106,2
Qorako‘l	712,3	108,8	4 134,1	107,4
Qorovulbozor	6 886,4	98,1	343 854,0	96,1
G‘ijduvon	1 498,7	105,8	4 630,4	104,1

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Qorovulbozor tumanida (343 854,0 ming. so‘m) va Kogon tumanida (12 064,0 ming.so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (8 128,0 ming.so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

**Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming.so'mda  
(2024-yil yanvar-iyun)**




Hududlar kesimida aholi jon boshiga o'rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlari Kogon tumani (2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 108,4 foizga), Qorako'1 (107,4 foizga) va Olot tumanlarida (106,2 foizga) kuzatilgan bo'lsada, faqatgina Qorovulbozor (96,1 foizga) tumanida o'sishning past sur'ati kuzatildi.

**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi**

Kichik tadbirkorlik subektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 116,8 foizga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 38,5 foizni tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olot (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 95,1 foiz), Shofirkon (91,6 foiz), Jondor (88,5 foiz) va Vobkent (78,8 foiz) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kam ulush G'ijduvon (47,6 foiz), Romitan (37,7 foiz) hamda Qorovulbozor (3,8 foiz) tumanlari kuzatildi.

**Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari  
ishlab chiqarishdagi ulushi, foizda**  
(2024-yil yanvar-iyun )



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi**

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 155 ta loyiha bo'yicha 3 253,6 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, yanvar-iyun oylarida 11 562,4 ming AQSH dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi.


**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari**  
(yanvar-iyun )

	2023-yil	2024-yil
Loyihalar soni, birlik	153	155
Korxonalar soni, birlik	137	142
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	1 864,7	3 253,6
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSH doll.	14,6	11,6
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	83	399

***Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi***

Hisobot davrida viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1 590,8 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Oʻtgan yilda qoʻshma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 9,2 foizni tashkil etgan boʻlsa, hisobot davrida bu koʻrsatkich 9,5 foizni tashkil etgan holda oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 bandga koʻpaygan.


**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, foiz**



***Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari***

Bugungi kunda viloyatda 3 794 ta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatayotgan boʻlib, ulardan Buxoro shahriga 774 tasi, G'ijduvon tumaniga 448 tasi, Kogon tumaniga 337 tasi, Romitan tumaniga 324 tasi, Jondor tumaniga 339 tasi, Buxoro tumaniga 267 tasi, Vobkent tumaniga 293 tasi, Shofirkon tumaniga 217 tasi, Qorako'l tumaniga 187 tasi, Peshko' tumaniga 199 tasi, Kogon shahriga 146 tasi, Olot tumaniga 183 tasi va Qorovulbozor tumaniga 80 tasi toʻgʻri keladi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik  
(2024-yil yanvar-iyun)



2024-yil yanvar-iyun oylarida viloyatda 507 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan Qorako'l tumaniga 4,9 foizi, Buxoro shahriga 8,7 foizi, Romitan tumaniga 12,0 foizi, Vobkent tumaniga 14,2 foizi, G'ijduvon tumaniga 9,9 foizi, Kogon tumaniga 5,1 foizi, Olot tumaniga 10,5 foizi, Buxoro tumaniga 7,1 foizi, Kogon shahriga 2,2 foizi, Peshko' tumaniga 7,5 foizi, Jondor tumaniga 8,5 foizi, Shofirkon tumaniga 8,3 foizi, hamda Qorovulbozor tumaniga 1,2 foizi to'g'ri keladi.

### Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Sanoat bu** – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

**Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi** – korxonadan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, nosanoat bo'linmalarga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi: ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar).

**Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarishi hajmi** – boshqa korxonalariga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan, korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot.

**Mahalliyashtirish darajasi** – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi.

**Mahsulot sotish hajmi** – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno).

**Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati** – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha hisob-kitob qilgan holda to'ldiriladi.

**Tayyor mahsulot** - sotish uchun mo'ljallangan va texnik hamda sifat talablariga muvofiq keladigan, tashkilotning ishlab chiqarish siklining pirovard natijasi bo'lgan tovar